

## ZAMONAVIY OILALARDA AYOLLARNING TARBIYAVIY FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Mamasoliyeva Xadichaxon Abduqaxxor qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti  
1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19370639>

**Annotatsiya;** *Ushbu maqolada bugungi zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borgan davrda oilada sog’lom tarbiya muhitini yaratish, oilaviy tarbiya jarayonida ayollarning tutgan o’rni tahlil qilinadi. Shuningdek ayollarning tarbiyaviy funksiyasini samarali amalga oshirish, oila va ta’lim muassasalari hamkorligini tashkil etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya masalalari tahlil qilinadi.*

**Kalit so’zlar;** *zamonaviy oila, ayollarning tarbiyaviy funksiyasi, oilaviy tarbiya, pedagogik shart-sharoitlar, ona tarbiyasi, pedagogik savodxonlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, shaxs kamoloti, milliy qadriyatlar.*

**Abstract;** *This article analyzes the role of women in the family upbringing process, creating a healthy upbringing environment in the family, in the era of rapid development of modern technologies. It also analyzes the issues of effective implementation of the educational function of women, organization of cooperation between families and educational institutions, and upbringing based on national and universal values.*

**Keywords;** *modern family, educational function of women, family upbringing, pedagogical conditions, motherhood, pedagogical literacy, spiritual and moral upbringing, personal development, national values.*

**Аннотация;** *В данной статье анализируется роль женщин в процессе семейного воспитания, создании здоровой воспитательной среды в семье в эпоху стремительного развития современных технологий. Также анализируются вопросы эффективного осуществления воспитательной функции женщин, организации сотрудничества между семьями и образовательными учреждениями, а также воспитания на основе национальных и универсальных ценностей.*

**Ключевые слова:** *современная семья, образовательная функция женщин, семейное воспитание, педагогические условия, материнское воспитание, педагогическая грамотность, духовно-нравственное воспитание, личностное развитие, национальные ценности.*

Zamonaviy jamiyat rivojlanishi va takomillashishida oilaning o’rni beqiyosdir. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti sifatida shaxsning shakllanishi, uning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ro’l o’ynaydi. Shuningdek farzand tarbiyasida onaning o’rni alohida ahamiyatga ega bo’lib, u bolaga dastlabki axloqiy qadriyatlar, odob-axloq me’yorlari va ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini singdirilishida yetakchi vazifani bajaradi. Hozirgi kunda globallashuv jarayonida, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi oilaviy tarbiyaga o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Bunday sharoitda ayol tarbiyaviy faoliyatini takomillashtirish, ularning pedagogik bilim va ko’nikmalarini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sababi aynan onalarning tarbiysi va tarbiyaviy savodxonligini va oiladagi pedagogik muhit farzandning har tomonlama barkamol shaxs bo’lib voyaga yetishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Aynan shuning uchun ham zamonaviy oilalarda ayollarning tarbiyaviy funksiyasining samarali amalga oshirish uchun zarur bo’lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularni samarali amalga oshirish uchun zarur

bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ushbu maqola orqali globallashuv davridagi oilalarda ayollarning tarbiyaviy funksiyasining mazmuni, uning ta’sir etuvchi omillar hamda ushbu faoliyati takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilinadi.

O‘zbek ayoli qadim-qadimdan milliy tarbiya va axloqiy qadriyatlarning asosiy timsoli bo‘lib kelgan. Ayol nafaqat oilaning ajralmas qismi, balki, jamiyatning ma’naviy ustuni sifatida e’zozlanib keladi. O‘zbek xalqining uzoq yillik milliy an’analari, qadriyatlari avloddan –avlodga o‘tishini ta’min etuvchi inson ham ayoldir. Shuningdek o‘zbek ayoli o‘zbek milliy tarbiyasi va axloqiy qadriyatlarini o‘zida uyg‘un etgan shaxs sifatida ham ulug‘lanadi. Zamonaviy taraqqiyot davrida bolalarning tarbiyasi muhim e’tibor talab etadi. Ayniqsa yosh avlod tarbiyasida ayollarning, ya’ni onalarning ro‘li muhim hisolanadi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy oilalarda tarbiyaviy funksiyasini samarali tashkil etish ko‘p jihatdan oiladagi pedagogik muhit, onalarning pedagogik savodxonligi hamda oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik darajasiga bog‘liqligi aniqlanadi.

Muhokama natijasiga ko‘ra oilada sog‘lom muhitni yaratish uchun avvalo, ota-ona va farzandlar o‘rtasida o‘zaro hurmat hamda ishonchni shakllantirish farzand tarbiyasining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ayollarning pedagogik bilimlarni oshirish, zamonaviy tarbiya usullaridan foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tizimni yo‘lga qo‘yish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu jarayonda shuni aytish mumkinki, tarbiya har bir insonning hayotida muhim ahamiyatga ega.

Ma’rifatparvar **Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud Axloq”** asarida tarbiyaga quyidagicha ta’rif beradi;

“Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”.[1.11]

Abdulla Avloniy o‘z qarashlarida ta’kidlab o‘tgandek, tarbiya insonning hayotini va uni go‘zal bo‘lishini ta’min etadi. Oilada axloqli va yetuk farzandni voyaga yetishi uchun avvalo ayollarning pedagogik salohiyati bo‘lishi juda muhimdir. Bugungi kunda ayollardan nafaqat pedagogik balki mediasavodxonlik ham talab etilmoqda. Buning sababi zamonaviy axborot texnologiyalari va globallashuv davridir.

Ayollar farzandini to‘g‘ri tarbiya qilishi uchun dastlab ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish muhimdir. Agar ona farzandini har tomonlama kuzatsa va tarbiya etsa u voyaga yetkazuvchi farzand yetuk bo‘lishi shubhasizdir. Onalar uchun maxsus seminarlar o‘tkazish va ushbu seminarlarda bolalarini tarbiyalashning zamonaviy metodikalaridan ularga o‘rgatish farzandni tarbiya etishning yana bir muhim omilidir. Bundan tashqari ayol va qizlar uchun maxsus platformalar joriy etilib, ularga farzandini pedagogik-psixologik va ta’lim jihatdan voyaga yetkazish borasida maslahatlar berib borilsa, onalar dilbandlariga tarbiya berishda qiyinchilikka uchramas edilar. Aslini olganda, ayol o‘qimishli, yuksak aqliy salohiyatli va bugungi davrda yetarlicha mediasavodxonlikka ega bo‘lsagina, noto‘g‘ri yo‘ldan farzandini qaytara oladi. Zamonaviy texnologiyalar davrida ayol muhim o‘rin tutadi. Shuningdek ayollar har doim jamiyatning ma’naviy-axloqiy tarbiyasining timsoli bo‘lib kelgan.

“O‘zbek ayolining haqiqiy qiyofasini tasavvur qilmoq uchun u bosib o‘tgan uzoq yo‘lga, avvalo uning o‘tmishiga, so‘ngra esa kechagi va bugungi kuniga chuqur nazar tashlab, uning kelajagi haqida xayol qilmoqlik mumkin. Amir Temur va temuriylar sulolasiga mansub bo‘lgan, sohibqironning onasi Taginabegim va suyakli rafiqasi Saroymulkxonim, Zahiriddin Muhammad Boburning buvisi Eson Davlatbegim kabi ayollarimiz jamiyat hayotidagi ma’lum bir mavqega ega bo‘lib, ular orasidan buyuk hukmdorlar, oqila ilmi ayollar, yetuk donishandlar, olimalar, buyuk shoirlar yetishib chiqqanlar.”[2.52]

Ushbu fikrda har bir buyuk shaxs albatta yuksak axloqli ayol tarbiyasi orqali, uning ko’magi orqali buyuklikka erishgani ta’kidla o’tiladi. Shuningdek ayol – kecha, bugun va kelajakda ham milliy tarbiyaning timsoli sifatida gavdalanadi. Milliy qadriyatlarimizni avlod-dan-avlodga o’tishiga o’zining ulkan hissasini qo’shadi. Bizning bir-biridan go’zal milliy qadriyatlarimiz bor.

Bugungi Yangi O’zbekistonimizda ayol-qizlar uchun ulkan islohatlar amalga oshirilmoqda.

"Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o’rni va mavqeini yanada “mustahkamlash-islohotlarimizning eng ustuvor yo’nalishlaridan biridir...” deb ta’kidlaydilar Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.”[3.57]

Muhtaram Yurtboshimizning fikrlarida ham bugungi ayol-qizlar uchun yaratilgan imkoniyatlarni ko’rishimiz mumkin. Cheksiz imkoniyatlardan yosh avlodning tarbiyasidek mas’uliyat egalari bo’lgan ayol-qizlar unumli foydalangan holda o’zlarining hissalarini Vatan taraqqiyoti uchun qo’sha olsalar maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Zamonaviy jamiyatda oilaviy tarbiyaning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, farzand tarbiyasida ayollarning o’rni beqiyosdir. Tadqiqot jarayonida zamonaviy oilalarda ayollarning tarbiyaviy funksiyalarini samarali amalga oshirish ko’p jihatdan oiladagi pedagogik muhit, onalarning pedagogik savodxonligini hamda oila va ta’lim muassasasi hamkorligini ta’minlash kerakligi aniqlandi. Natijaga ko’ra oilada sog’lom muhitni tashkil etish va ota-ona bilan farzand o’rtasida hurmat ishonchni shakllantirish zarurdir. Jumladan ayollarni har tomonlama rivojlantirish, tarbiyaviy jarayonni yuksaltirish demakdir.

Xulosa qilib aytganda, ayolning tarbiyaviy funksiyasini rivojlantirish orqali oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish mumkin. Tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo’lgan “barkamol avlod”ni voyaga yetkazish avvalo oiladan, ayollarning yetuk salohiyatidan boshlanadi. Zero, ayollar tarbiyani yosh avlod qalbiga singdiradilar. Barkamol avlod esa bizning yorqin kelajagimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ;**

1. Turkiy guliston yoxud axloq (Matn)/ A. Avloniy/ - Toshkent : Yoshlar nashriyot uyi, 2018 – 96 b.

2. O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM YO‘NALISHLARI O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM YO‘NALISHLARI

3. YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIMA AYOLLARGA JAMIYATDAGI IMKONIIYATLAR. Amonova Nargiza Muxtarovna Buxoro davlat tibbiyot instituti “Biokimyo” kafedrasi asistenti